

TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISH VA UNDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Guliza Saparbayeva Makset qizi

Nukus davlat pedagogika instituti talabasi

Otajonova Nilufar Shavkat qizi

Nukus davlat pedagogika instituti talabasi

Qodirberganova Mardona Zairboy qizi

Nukus davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Zamonaviy taraqqiyot davrida har bir sohada keng ko'lamli, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda bir qator ishlar bosqichma bosqich amalga oshirilayabdi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonini ham chetlab o'tgani yo'q. Ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yanada rivojlantirish uchun innovatsion strategiyalar ishlab chiqish hamda ularni amalda qo'llay bilish ta'lim muassasalari boshqaruv jarayonini va ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Yurtimizda ta'lim sifatini oshirish uchun keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda, jumladan prezident maktablari ochilib unda yurtimiz kelajagi yosh avlodga yangicha ta'lim berilayotgani barchamizga ma'lum, Bundan tashqari maktab ta'limda yutuq va kamchiliklarni ochiq oydin yoritib beruvchi Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish rejalashtirilyotgani ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar va uni yanada rivojlantirish uchun shaxdam qadamlar hisoblanadi. Ta'lim muassasalarini boshqarish jarayonida uni tubdan isloh qilish uchun albatta ta'lim sohasida katta yutiqlarga erishayotgan, rivojlanayotgan davlatlar bilan keng ko'lamli o'zaro tajriba almashish va do'stona munosabatlar, hamkorlik ishlarini amalga oshirish ham ta'lim tarbiya jarayonidagi islohatlar hisoblanaib bugungi kunda aynan shunday islohatlar keng ko'lamda ishlar olib borilayotgani va amaliyotga taqdim etilayotganini ko'ramiz.

Kalit so'zlar: Boshqaruv, rahbar, ta'lim, islohot, pedagog, ta'lim muassasasi, texnologiya, ta'lim tizimi sifati, tamoyil, qonun, metod.

Boshqaruv faoliyating to'g'ri va samarali olib borilishi korxon va tashkilotning gullab yashnashiga olib keladi. Bunda boshqaruv asosan xo'jalik ob'ekting iqtisodiy tizimini, holatini ongli ravishda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish, ko'zlangan natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladi.

Mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'daniy hayotida keng qamrovli masalalarning yechimi boshqaruv tizimining ravnaqi bilan chambarchas bog'liq. Istiqloq sharofati bilan davlatimiz zamonaviy rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish, aholining turmush farovonligini yaxshilash va jahon hamjamiyatidan o'ziga xos o'zinni egallashga ildam harakat qilmoqda. Shuning uchun

boshqaruv tizimidagi vazifalarni yangitdan ko‘rib chiqish jarayoni boshlandi. Ayniqsa bu ta‘lim sohasida keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Chunki islohotlarning muvaffaqiyati ham, umuman ta‘lim sifatini ham ko‘p jihatdan boshqaruv sifati belgilab beradi. Shu bois ham ta‘lim tizimiga e‘tibor kuchaytirilgan. Buning asosiy sababi zamon talablariga mos keladigan yetuk va malakali kadrlarni tayyorlash masalasi hisoblanadi. Biz ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotga diqqatimizni qaratishimiz kerak. Ba‘zi ta‘lim tashkilotlarida boshqaruvni rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlar bizning fikrimizcha yaxlit xususiyatga ega emas. Bu holat mamlakatimizning ta‘lim tizimi sifatiga ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi. Ta‘lim sifatini oshirish uchun eng muhim masala bu o‘z ustida ishlaydigan, zamonaviy fikrlaydigan, fidoiy vatanparvar yoshlarni tayyorlashdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta‘lim tizimidagi zamonaviy islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda bozor iqtisodiyoti chuqur ildiz otib borayotgan davrda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq bir qator yangi talablar yuzaga keldi. Ular ichida eng muhimlari: ijtimoiy-psixologik diagnostika; guruhlarda o‘zaro shaxsiy munosabatlarni, rahbarlik munosabatlarni tahlil qilish va tartibga solish; ta‘lim jarayoni ba ijtimoiy ixtiloflarni hamda stresslarni boshqarish; ta‘lim tizimini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta‘minlash; pedagogik xodimlarga bo‘lgan ehtiyojlarni tahlil qilish; pedagogik xodimlarning kasbiy va ijtimoiy-psixologik moslashuvi hamda ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish; umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini boshqarish tizimini takomillashtirish; ta‘lim tizimini boshqaruv jarayoniga yangicha yondashuv; ta‘lim muassasalarida mehnathuquqiy munosabatlar masalalaridir. [1, 14-15]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta‘lim tizimidagi bu kabi islohotlar ta‘lim tizimini boshqaruv jarayonini o‘zgartirish, uni tubdan takomillashtirish, boshqaruvning buyruqbozlik metodidan voz kechib, zamon talablariga mos keladigan boshqaruv tizimini shakllantirishni taqozo etadi.

Ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmunini takomillashtirish yo‘nalishidagi ixtiyoriy innovatsion faoliyat mavjud bo‘lgan boshqaruv funksiyalarining ma‘lum bir izchillikda amalga oshirilishini talab etadi. Zamonaviy maktabni boshqarish funksiyalarini amalga oshirishni rejalashtirishda, eng avvalo, boshqaruvning maqsadi, funksiyalarning mazmun-mohiyati va vazifalari inobatga olinadi. Umumiy maqsadlarga erishishda mazkur funksiyalarni amalga oshirish tizimini tashkil etuvchi vazifalarni bajarishda qo‘llaniladigan boshqaruv metodlari tanlab olinib, boshqaruv faoliyati boshqaruvni tashkil etish tamoyillari va qonunlariga asosan amalga oshiriladi. [1, 37] Shunga asoslanib, ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonida eng ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va boshqaruvning eng samarali usullaridan foydalangan holda yangi amaliyotga jorish etish vazifalarini belgilaydi.

Ta'lim tizimini tubdan yangilayotgan davrda ta'lim sohasida yuqori reytinglarda kelayotgan davlatlar tajribasini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimini yangitdan tashkil qilishda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz. 1990-yilda YUNESKO Xalqaro Ta'limning Rejalashtirish Instituti ilmiy tadqiqotlarining ustuvor yo'nalishlari qatorida dunyoning turli mamlakatlarida ta'lim strategiyasini ishlab chiqish va rejalashtirish masalalari bilan bog'liq zamonaviy muammolarni belgilab berdi. Yetuk mutaxassislardan iborat Tahrir Hayati tayinlandi. Tahrir Hayatining 1990-yil yanvarda bo'lib o'tgan birinchi kengashida hayot a'zolari yaqin kelajakda ustuvor ahamiyatga ega bo'ladigan asosiy mavzuni aniqlab oldilar. Eng dolzarb muammolar qatoriga ta'lim-tarbiyaning sifati masalasi ham kirdi. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari turkumining maqsadlaridan biri – tajriba va mulohazalar xilma-hilligini aks ettirish, keng ko'lamda ixtisoslashgan turli mualliflarga o'zgarib turuvchi nazariya va amalda qo'llanilayotgan ta'lim sifatini rejalashtirish texnologiyalariga doir o'z fikrlarini bildirish imkonini beradi.

Chet el, ayniqsa, sobiq Ittifoq makondagi ta'lim tizimini isloh qilish tajribalarini o'rganish, ilg'or odamlar va mutaxassislarning asarlarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga kelindi: Milliy modelda ta'limga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish islohotlar doirasidagi maqsadli ko'rsatmalar tarixiy va ilmiy jihatdan aniq belgilab berildi. [1, 26-27]

Ta'lim oluvchilarning bilim va malakasini tahlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o'quv yili davomida har bir ta'lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o'tkazib boriladi. Uning natijasida eng namunali maktablar, pedagoglar salohiyati va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi.

Ta'lim tizimining sifat darajasini kuchaytirish ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini zamonaviy talablarni hisobga olgan holda tanqidiy tahlil qilish hamda yangilash bilan bir qatorda, ta'lim muassasalarida pedagogic jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini ham takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki, hozirgi kunda ta'lim muassasalarida yaratilayotgan sharoitlar, zamonaviy o'zgarishlar barcha imkoniyatlardan foydalana oladigan, o'ziga va o'z ishiga nisbatan talabchan, ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'ya oladigan, o'z ishining ustasi bo'lgan, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilgan, o'zini-o'zi rivojlantiruvchi hamda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la ishga sola biladigan rahbarlar va professoro'qituvchilarning faoliyat ko'rsatishini talab qilmoqda. [3, 3]

Mamlakatimizda ta'lim islohotlari bilan bog'liq jarayonlar va faktlarni holis baholash, xalqaro tajribaning ijobiy unsurlarini hamda bu tajribani O'zbekistondagi ta'lim faoliyatiga oqilona tadbiiq etish imkoniyatlarini izlash yangi pedagogik tafakkur yo'nalishida ustuvor o'rin egallaydi. [2, 34]

Хулоса o'rnida shuni aytish kerakki, har bir sohada boshqaruv jarayoni mavjud va bu to'g'ri olib borilsa tashkilot va korxonaning gullab yashnashiga olib keladi. Ta'lim tizimidagi vazifalarni yangitdan ko'rib chiqish jarayoni ayniqsa ta'lim sohasida keng ko'lamda amalga oshirilsa bu islohotlarning muvoffaqiyati ham, ta'lim sifatini va ko'p jihatdan boshqaruv sifatini belgilab beradi. Bu islohotlarning asosiy sababi zamon talablariga mos keladigan yetuk va malakali kadrlarni tayyorlash masalasi hisoblanadi. Olib borilayotgan bunday keng ko'lamli islohotlar faqatgina belgilangan muddatdagina emas balki o'zining samarasi va sifatiga qarab uzluksiz tarzda amalga oshirilsa va muntazam nazoratda ushlab turilsa o'laymizki bunday islohotlar natijasida ta'lim sohasi va uni boshqarish jarayoni yildan yilga o'zining ijobiy yo'nalishini yaqqol namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ta'lim menejmenti R.X.Jo'rayev, S.T.Turg'unov Toshkent—Voris nashriyot 2006
2. Ta'lim sifatini boshqarish Sh.Qurbonov E.Seytxalilov Toshkent—TURON Iqbol 2006
3. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari—Sano-standart nashriyoti Toshkent - 2012